

**JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI VA INTERPOLNING XALQARO HAMKORLIGI**

***Yahyoyev Javohir Bahodir o'g'li***

*Toshkent davlat yuridik universiteti  
jinoyat qonunchilagini qo'llash nazariyasi  
va amaliyoti magistratura talabasi.*

[javohiryahyoyev760@gmail.com](mailto:javohiryahyoyev760@gmail.com)

+998900274880

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro Jinoyat Politsiyasi Tashkiloti (Interpol)ning jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi xalqaro hamkorligi tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasi va Interpol o'rtasidagi hamkorlikning rivojlanishi, shu jumladan axborot almashish, qo'shma operatsiyalar o'tkazish va jinoyatchilarni qo'lga olish borasidagi o'zaro harakatlar ko'rib chiqiladi. Bunga qo'shimcha ravishda, O'zbekistonning kiberjinoyatchilik, terrorizm, odam savdosi, va giyohvand moddalar savdosiga qarshi kurashishdagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdagi roliga e'tibor qaratiladi. Ishda Interpolning milliy markazi byurosi (MMB) va uning O'zbekistondagi faoliyati, hamkorlikning samaradorligini oshirish maqsadida amalga oshirilgan amaliyotlar, o'quv dasturlari va texnik yordam ko'rsatish kabi masalalar hamda muammolar tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro hamkorlik, Interpol, Kiberjinoyatchilik, Axborot almashish, Terrorizm, Odam savdosi, Giyohvand moddalar savdosi, Milliy markazi byuro (MMB).

**Abstract:** This article analyzes the international cooperation between the Republic of Uzbekistan and the International Criminal Police Organization (Interpol) in the fight against crime. The development of cooperation between the Republic of Uzbekistan and Interpol, including the exchange of information, conducting joint operations and mutual efforts to apprehend criminals, will be considered. In addition, Uzbekistan's role in the development of international cooperation in combating cybercrime, terrorism, human trafficking, and drug trafficking will be highlighted. The work analyzes issues and problems of the National Central Bureau of Interpol (MMB) and its activities in Uzbekistan, practices implemented in order to increase the effectiveness of cooperation, training programs and technical assistance.

**Key words:** International cooperation, Interpol, Cybercrime, Information exchange, Terrorism, Human trafficking, Drug trafficking, National Central Bureau (MMB).

**Аннотация:** В данной статье анализируется международное сотрудничество между Республикой Узбекистан и Международной

организацией уголовной полиции (Интерпол) в борьбе с преступностью. Будет рассмотрено развитие сотрудничества между Республикой Узбекистан и Интерполом, включая обмен информацией, проведение совместных операций и взаимных усилий по задержанию преступников. Кроме того, будет освещена роль Узбекистана в развитии международного сотрудничества в борьбе с киберпреступностью, терроризмом, торговлей людьми и незаконным оборотом наркотиков. В работе анализируются вопросы и проблемы Национального центрального бюро Интерпола (НЦБ) и его деятельности в Узбекистане, практика, реализуемая в целях повышения эффективности сотрудничества, программы обучения и технической помощи.

**Ключевые слова:** Международное сотрудничество, Интерпол, Киберпреступность, Обмен информацией, Терроризм, Торговля людьми, Незаконный оборот наркотиков, Национальное центральное бюро (ММБ).

## **KIRISH**

Hozirigi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashish, ularni oldini olish hamda aholini jinoyatga qarshi ruhda tarbiyalash har bir davlatning oldida turgan vazifa hisoblanadi.Buning eng asosiy sababi shuki, jinoyatlar nafaqat insonlarning yashash huquqi, jamiyatning boshqa manfaatlarga zarar yetkazibgina qolmay,balki, davlarlarning manfaatlariga, hatto ba'zi holatlarda suverinitetiga daxl qilmoqda. Shu bois bunday jinoyatlar davlatlar o'rtasidagi kelishuvlar asosida xalqaro xarakterdagi jinoya deb tan olish va ularga nisabatan choralar ko'rishga ehtiyoj tug'ilmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi hamkorlik sohasida Xalqaro jinoyat politsiyasi tashkiloti (Interpol)ning xalqaro hamjamiyatdagi ahamiyati va rolini kundan kunga ortib bormoqda. Ko'plab davlatlar,shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlarining ham Interpol bilan hamkorligi, hamda raqamlashtirish davrida aloqalarining rivojlanish istiqbollari kengayib bormoqda.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Umuman olib qaraganda jinoyatchilikka qarshi kurash - bu davlat va jamoat organlarining jinoyat qonuni normalariga rioya etilishini ta'minlashga, u bilan qo'riqlanadigan manfaatlar va manfaatlarga zarar yetkazilishining oldini olishga qaratilgan, jinoyatga faol qarshilik ko'rsatish bilan tavsiflangan va jinoyatchilikning oldini olishda ifodalangan tizimli faoliyatidir. "Jinoyatchilikka qarshi kurash" atamasi ko'pincha davlat, jamiyat va jinoyat munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi.<sup>1</sup> Lug'atlarda "kurash" atamasi qarama-qarshi manfaatlarga ega bo'lgan ayrim guruhlar o'rtasidagi faol qarama-qarshilik sifatida talqin qilinadi. A.I. Dolgovaning ta'kidlashicha, aynan "kurash" tushunchasi davlat va jamiyat faoliyatining ushbu turining xarakterli xususiyatlarini to'liq aks ettiradi. Hozirgi davrda rivojlangan hamda

---

<sup>1</sup> Jinoyatchilikka qarshi kurashishga ta'rif: wikipedia.Борьба с преступностью

rivojlanoyatgan davlatlar o‘z e’tiborlarini xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratishmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik- bu xalqaro huquq subyektlarining ichki huquq bilan taribga solinadigan shaxs, jamiyat, davlat va xalqaro hamjamiyatni jinoyatchilikdan himoya qilish bo‘yicha bирgalikdagi faoliyati hisoblanadi. Jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik deganda xalqaro huquq subyektlarini noqonuniy xatti-harakatlarini oldini olish, aniqlash, ularga chek qo‘yish va tergov qilish, aybdorni jazolash, jinoyat bo‘yicha o‘zaro yordam ko‘rsatish, shuningdek shaxslarni qidirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladigan muvofiqlashtirilgan faoliyat tushuniladi.<sup>2</sup> Xususan, olimlar jinoyatchilikning oldin olishda xalqaro hamkorlikni ahamiyati bo‘yicha turli xil fikrlarni bildirishadi. Jumladan, Professor David McClean, bugungi kunda hech bir davlat alohida o‘zi jinoyatchilik muammosini hal qila olmaydi deya ta’kidlaydi.<sup>3</sup> Shuningdek, Neil Boi o‘zining "An Introduction to Transnational Criminal Law" kitobida xalqaro munosabatlar doirasida qonuniy tizimlar integratsiyasi, protsessual normalarning uyg‘unlashuvi va milliy qonunchilikni qonunchilik standartlariga moslashtirish kabi muhim jarayonlarni amalga oshirish jinoyatchilikni oldin olishda har tomonlama ko‘mak berish haqida fikr bildiradi.<sup>4</sup> Osiyo mintaqasidagi olimlardan, Zhang o‘zining asarida Osiyo mamlakatlarining xalqaro politsiya hamkorligining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilib, munosabatlarni rivojlantirishning ahamiyatini ta’kidlaydi.<sup>5</sup> Williams va Vlassis o‘z asarlarida transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashishda kompleks ishlab chiqarish zarurligini ta’kidlab, hamkorlikning konseptual asoslari va amaliy faoliyat yo‘nalishlarini yoritib bergen.<sup>6</sup> O‘zbek olimlardan, Professor Akmal Saidov fikricha, Xalqaro hamkorlik nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurash, milliy huquq-tartibot organlarining rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyatga ega kasb etadi. Darhaqiqat, huquq himoyasi orqali davlatlar jinoyatchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tezkor almashish, jinoyat usullarga oid axborotlarni o‘rganish va statistik ma’lumotlarni tekshirishga nisbatan ega bo‘ladi.<sup>7</sup> Jinoyatga qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik asosiy yo‘nalishlari sifatida Axborot almashish va razvedka faoliyati, Qo‘shma operatsiyalar va tergovlar, Ekstraditsiya va o‘zaro sud hamkorligi hamda Kiberjinoyatchilik va kiberxavfsizlikka qarshi kurash yo‘nalishlarda olib boriladi.<sup>8</sup> Xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurashida asosiy tashkiloti sifatida Interpol o‘zining a‘zo davlatlari bilan maxsus prinsiplarga tayyanga holda o‘z

<sup>2</sup> А.Е. Шалагин М.Ю.Гребенкин: Международное сотрудничество в сфере противодействия преступности на современном этапе // Учёные записки Казанского юридического института МВД России.2020. Т. 5 №2(10). С. 260-268.-

<sup>3</sup> McLean, D. (2022). International cooperation in criminal cases. Oxford University Press.

<sup>4</sup> Boister, N. (2023). Introduction to Transnational Criminal Law. Cambridge University Press.

<sup>5</sup> Zhang, L. "Asian Perspectives on International Police Cooperation" Asian Journal of Criminology,18(3),89-112.

<sup>6</sup> Williams, P. and Vlassis, D. (2022). Combating Transnational Crime: Concepts, Activities, and Responses.Routledge.

<sup>7</sup> Saidov, A. (2021). xalqaro huquq va milliy qonunchilik. Toshkent.

<sup>8</sup> Гринь И. Ю. Международное сотрудничество в сфере уголовного судопроизводства: дис.канд. юрид. наук; 12.00.09. СПб., 2006.

faoliyatini amalga oshiradi. Shu jumladan, Uning faoliyatida jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasidagi hamkorlik nafaqat Interpol Nizomi va Reglamentlari bilan tartibga solinishi, balki jinoyat, jinoyat-protsessual, ma'muriy va milliy qonunchilikning boshqa tarmoqlari normalari bilan ham uzviy bog'liq bo'lishi kerakligi ham nazada tutiladi.<sup>9</sup> Uning huquqiy maqomiga tavsif berilar ekan, milliy qonunchiligi asosida hamkorlikni amalga oshiruvchi, shu bilan birga, Butunjahon inson huquqlari Deklaratsiyasi asosida taribga solinuvchi turli xil davlat politsiya tashkilotlarining birlashtiruvichi<sup>10</sup> hamda Interpol barcha politasiya organlarining o'zaro hamkorligini ta'minlovchi, hatto alohida diplomatik munosabatlari mavjud bo'lмаган davlatlari o'rtasida ham hamkorlikni ta'minlovchi subyekt sifatida tasvirlandi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, u hamakorlikda,

- xalqaro terrorizmga qarshi kurash;
- Uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish;
- Kiberjinoyatchilikka qarshi kurash;
- Narkotik savdosiga qarshi kurashish;
- Odam savdosiga qarshi kurashda samarali faoliyatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi qonuning 45-moddasiga nazar tashlansa, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va xalqaro shartnomalariga muvofiq boshqa davlatlarning huquqni muhofaza qiluvchi organlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan o'z vakolatiga taalluqli masalalar bo'yicha hamkorlikni amalga oshirishi belgilab o'tilagan. Ya'ni, bu moddani sharhlaydigan bo'lsa, Ichki ishlar vazirligi aynan o'zining sohasi doirasida, tergov, surishtiruv, jinoyatni oldini olish va jinoyatga qarshi kurashish sohalarida, yoki bo'lmasa yuqoridagi qonunda belgilangan vakolatlaridan kelib chiqqan holda boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik olib borishi mumkin. Hozirgi kunda xalqaro hamkorlik masalasi bo'yicha Ichki ishlar vazirligi Interpol bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan.<sup>11</sup>

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Interpol bilan xalqaro jinoyatga qarshi kurashishdagi hamkorligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 2-iyun sanasidagi 343-sonli Qarori asosida tasdiqlangan Nizom tartibga solinadi. Qarorda O'zbekiston Respublikasida Interpolning Milliy markaziy byurosini faoliyatini tashkil etish va uni takomillashtirish chora-tadbirlari ko'zda tutilgan.<sup>12</sup> Nizomning umumiyligi qoidalarga ko'ra, Interpol NCB O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining tarkibiy bo'linmasi bo'lib, maqomi bo'yicha

<sup>9</sup> Nepote J. Crime international // Revue de la Police National (Paris). 1973. № 437. P. 46.


<sup>10</sup> Копылова Ю.И. Особенности деятельности международной организации уголовной полиции Интерполя в современных условиях // Вестник Всерос. ин-та повышения квалификации сотрудников МВД РФ. 2017. № 4 (44). С. 152.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi 16.09.2016 yildagi 407-sod Qonuni

<sup>12</sup> О мерах по совершенствованию деятельности Национального центрального бюро Интерполя в Республике Узбекистан.

mustaqil boshqaruvga teng, shu bilan birga Interpol tashkiliy tuzilmasi tarkibiga kiradi. O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik masalalari bo‘yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi. Interpol MMB(Markaziy milliy byuro) yuridik shaxs hisoblanadi, o‘z nomi ko‘rsatilgan muhrga, banklarda, shu jumladan chet el valyutasida hisob raqamlariga ega bo‘lib, o‘z faoliyatida Ichki ishlar vazirligi va Interpolning ramzlaridan foydalanadi. Interpol MMBning maqsadi O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlari va Interpolga a’zo mamlakatlarning shunga o‘xshash organlari o‘rtasida milliy qonunchilik va xalqaro huquqning umume’tirof etilgan norma va tamoyillariga rioya qilgan holda jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari bo‘yicha o‘zaro hamkorligini ta’minalashdan iborat.

Interpol MMB o‘z funksiyalarini bajarish bilan bog‘liq faoliyatni faqat xalqaro xarakterdagи oddiy jinoyatlarga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha amalga oshiradi. Ammo, siyosiy, harbiy, diniy va irqiy xarakterdagи faoliyatga ta’sir qilmaydi. Interpol MMB o‘z vakolatlari doirasida xorijiy davlatlarning diplomatik vakolatxonalari va xalqaro tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonalari tegishli xizmatlari bilan jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari bo‘yicha belgilangan tartibda hamkorlikda o‘z faoliyatini amalga oshiradi. Uning ma’sul xodimlari o‘z vakolatlari doirasida va O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq o‘zlariga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiradilar. Interpol MMB O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi maxsus bo‘linma bo‘lib, xalqaro jinoyatchilikka qarshi kurash va xalqaro hamkorlikni ta’minalash asosiy organlardan bir hisoblandi. Jumladan, quydagi jadvalda uning asosiy hamkorlik yo‘nalishlar va faoliyati ko‘rasatilgan: Interpol MMBning asosiy vazifalaridan biri O‘zbekiston Respublikasi huquq-tartibot idoralarining xorijiy davlatlar huquq-tartibot idoralari bilan jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari bo‘yicha axborot almashinuvini tashkil qilish hisoblanadi. 2018-yilning ikkinchi choragidagi statistika ma’lumotlarga ko‘ra, Interpol MMBga kelib tushgan hujjatlar 7 foizga, jo‘natilgan hujjatlar esa 4,5 foizga oshgan. Ularning asosiy qismini O‘zbekiston Respublikasi IIV tizimidagi hududiy ichki ishlar idoralari, xorijiy davlatlar MMBlari hamda Interpol Bosh kotibiyyati bilan axborot almashinuvi hujjatlari tashkil qiladi. Interpol MMBga asosan terrorizm va ekstremizm, shaxsga va mulkka



qarshi jinoyatlar, noqonuniy migratsiya va fohishabozlik, iqtisodiy jinoyatlar va qalbaki pullarni tayyorlash, hujjatlarni qalbakilashtirish kabi jinoyatchilik turlari bo'yicha eng ko'p so'rovlар kelib tushganligini kuzatilgan. Chunonchi, ulardan, Odam savdosi bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha 131 nafar shaxsga nisbatan, Ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq jinoyatga oid jami 1098 nafar shaxs qidirilmoqda. Ulardan 175 nafari chet el davlatlarida ekanligi aniqlangan. Yana shuningdek, Avtotransport vositalari bilan bog'liq jinoyatlar yo'naliishi bo'yicha 78 ta avtotransport vositasi hisoblari bu boshqarmaga kelgan so'rovlар orqali tekshirilgan.<sup>13</sup>

Interpol tartib-taomillari, xalqaro huquqni muhofaza qilish hamkorligi va muayyan jinoyatchilik sohalari bo'yicha MMB xodimlari uchun maxsus o'quv dasturlari va mashg'ulotlarni ishlab chiqish. MMB xodimlariga transmilliy jinoyatlarni tergov qilish va oldini olish bo'yicha ko'nikma va tajribalarini oshirish maqsadida Interpol boshchiligidagi o'quv kurslari, seminarlar va almashinuv dasturlarida ishtirok etish imkoniyatlarini taqdim etish taklif qilinadi.

### **XULOSA**

Umumiy xulosa shuki, Jinoyatchilikka qarshi kurashish amaldagi xalqaro huquq tamoyillari va milliy qonunchilik, ya'ni davlatlarning o'zaro yordam ko'rsatish asosida dunyo hamjamiyatining yoki bir qancha davlatlarning manfaatlariga daxldor tomonlar jinoyat sodir etishni to'xtatish, tergov qilish va ko'rib chiqish uchun jinoyat ishini qo'zg'atish, shuningdek huquqbazarliklarni bartaraf etish va jazo choralarini qo'llashdir. Jinoyatchilikka qarshi kurashishda xalqaro hamkorlik bevosita davlatning yoki uning organlari tomonidan amalga oshiriladi. Shubhasiz, bu davlatning jinoyatchilikka qarshi kurashishining siyosiy jihatni hisoblanadi. O'zbekiston va Interpol o'rtasidagi jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi hamkorlik har ikki taraf uchun ham, mintaqaviy va global xavfsizlik uchun ham salmoqli foyda keltirmoqda. Interpolda mavjud bo'lgan resurslar, ya'ni turli xil razvedka ma'lumotlari O'zbekistonga keng ko'lamli jinoiy faoliyatga qarshi samarali kurashish imkonini beradi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi 16.09.2016 yildagi 407-sон Qonuni
2. А.Е. Шалагин М.Ю.Гребенкин: Международное сотрудничество в сфере противодействия преступности на современном этапе // Ученные записки Казанского юридического института МВД России.2020. Т. 5 №2(10). С. 260-268.
3. McLean, D. (2022). International cooperation in criminal cases. Oxford University Press.

---

<sup>13</sup> Ushbu statistika ma'lumotlari 2018-yilga hisob bo'yicha taqdim qilingan.

4. Boister, N. (2023). Introduction to Transnational Criminal Law. Cambridge University Press.
5. Zhang, L. "Asian Perspectives on International Police Cooperation" Asian Journal of Criminology, 18(3), 89-112.
6. Williams, P. and Vlassis, D. (2022). Combating Transnational Crime: Concepts, Activities, and Responses. Routledge.
7. Saidov, A. (2021). xalqaro huquq va milliy qonunchilik. Toshkent.
8. Гринь И. Ю. Международное сотрудничество в сфере уголовного судопроизводства: дис.канд. юрид. наук; 12.00.09. СПб., 2006. –URL:
9. Nepote J. Crime international // Revue de la Police National (Paris). 1973. № 437. P.46.
10. Копылова Ю.И. Особенности деятельности международной организации уголовной полиции Интерпола в современных условиях // Вестник Всерос. ин-та повышения квалификации сотрудников МВД РФ. 2017. № 4 (44). С. 152.
11. О мерах по совершенствованию деятельности Национального центрального бюро Интерпола в Республике Узбекистан.
12. Jinoyatchilikka qarshi kurashishga ta'rif: [https://ru.wikipedia.org/wiki/Борьба\\_с\\_преступностью](https://ru.wikipedia.org/wiki/Борьба_с_преступностью)